Mavzu: Dars kuzatish va tahlil qilish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Reja

1. Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan asosiy maqsad
2. Dars kuzatish va tahlil qilish ketma-ketligi.
3. Dars kuzatishdan chiqarilgan yakuniy xulosalar, taklif va tavsiyalar.

KIRISH

O‘qituvchi faoliyatining samaradorligi nafaqat dars jarayonida qo‘llaniladigan metodlarga, balki o‘quv jarayonini kuzatish, tahlil qilish va natijalar asosida xulosalar chiqarish ko‘nikmalariga ham bog‘liq. Kasbiy standart – bu pedagogning malaka darajasi, bilimlari va ko‘nikmalari bo‘yicha belgilangan talablar majmui bo‘lib, darsni kuzatishda asosiy mezon vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv o‘qituvchining o‘z kasbiga mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlaydi va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan faoliyatini yanada takomillashtiradi. Dars tahlili pedagogik mahoratni oshirishning eng asosiy yo‘li va ta’lim samaradorligini oshirishning omili hisoblanadi. Ta’lim muassasalaridagi o‘quv mashg‘ulotlari mazmunini tahlil qilish bevosita ta’lim tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajalarini oshirishdan iboratdir. O‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy nazariyasini amaliyotga joriy etish asosida o‘quv jarayonini takomillashtirishning eng muhim omili darsni pedagogik kuzatish va tahlil qilish hisoblanadi bundan tashqari darslarni tahlil qilish orqali o’qituvchilar o’z pedagogik mahoratni oshirish va yo’l qo’yilgan xató va kamchiliklarni to’ldirish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

1. Darslarni kuzatish va tahlil qilishdan asosiy maqsad

Ta’limning yangi mazmuni va sifatini shakllantiruvchi asosiy shaxs o‘qituvchidir. Zamonaviy sharoitda o‘qituvchining roli o‘zgarmoqda – bilimning yagona manbai, ma’lumot tashuvchisidan ta’lim jarayonining tashkilotchisi va rahbarigacha – bu tegishli darajadagi professional malakani talab qiladi.

Yangi professional o‘qituvchi standarti o‘qituvchining asosiy kasbiy kompetensiyalarini belgilaydi.

Qobiliyatni faqat harakatda ko‘rish va baholash mumkin.

O‘qituvchi faoliyatining asosiy va eng muhim shakli darsdir, shuning uchun kompetensiya darajasini baholashda dars davomida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlashini kuzatish kerak. O‘qituvchining kasbiy standarti asosida o‘qituvchi faoliyatini nazorat qilish vositasi ishlab chiqilgan. Ta’lim vositasi o‘qituvchining harakatlarida ma’lum bir vakolat doirasida standartning amalga oshirilishini ko‘rsatadigan ko‘rsatkichlarni ko‘rish (yoki ko‘rmaslik) imkonini beradi.

Ushbu materiallarda keltirilgan vositadan foydalangan holda darsda o‘qituvchining ishini kuzatishdan maqsad uning kasbiy kompetensiyalari

darajasini aniqlash va attestatsiya jarayonida ushbu baholashdan foydalanishdir.

Dars davomida o‘qituvchining harakatlarini kuzatish uning malaka darajasini va demak, o‘quv jarayonining sifatini ko‘rsatadi.

Kuzatish – bu ma’lum bir reja bo‘yicha, aniq maqsad bilan olib boriladigan, kuzatilayotgan narsa haqida obyektiv ma’lumot beradigan tadqiqot usuli. Kuzatish odatda oldindan aniqlangan ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratish, ularning ko‘rinishi yoki yo‘qligini qayd etish orqali amalga oshiriladi. Ushbu usulning ahamiyati uning obyektivligi, shaffofligi, samaradorligi va ishonchliligidadir.

O‘qituvchining kasbiy standarti 7 ta kasbiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi. Dars davomida ularning hammasini kuzatish mumkin emas. Masalan, rejalashtirish muayyan dars o‘tilgunga qadar sodir bo‘ladi. Ota-onalar yoki hamkasblar bilan hamkorlik qilish bilan bog‘liq kompetensiyalar, shuningdek, kasbiy rivojlanish bilan bog‘liq masalalar darslar davomida o‘rganilmaydi, bu kompetensiyalarning darajasini boshqa vaqtlarda va boshqa usullardan foydalangan holda tekshirish kerak.

Darslarni kuzatish va tahlil qilishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- dars kuzatuvchilar tomonidan ta’lim muassasasida o‘qituvchi ishiga baho berish;
- dars jarayonining dars o‘tish bosqichlariga mosligini kuzatish;
- kuzatuvchilar tomonidan dars o‘tayotgan o‘qituvchiga amaliy-metodik yordamlar berilishiga erishish;
- ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish;
- o‘qituvchilar o‘zaro bir-birlarining pedagogik usul va uslublarini o‘rganishiga da’vat qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirish.

O‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rishida quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

1) darsga tayyogarlik ko‘rish jarayonida o‘qituvchidan mavzuning ishchi dastur va taqvimiy rejaga mosligiga e’tibor berish, dars ishlanmasi, turli didaktik tarqatma materiallar va ko‘rgazmali qurollarni tayryolash talab etiladi;

2) darsga davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlariga mos ravishda aniq maqsad qo‘yish;

3) dars o‘tiladigan xonani tayyorlash, doskaning tozaligi, bo‘r, latta yoki markerlarni tayyorlash, vidioproektor, elektron doskaning tayyorligiga e’tibor qaratish;

4) mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomoni yo‘naltirish; ko‘rgazmalilik va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligiga, jonli va ravon tilda ochib berilishiga e’tibor qaratish;

5) o‘quv dasturi asosida mavzuga ajratilgan soatlarning mosligi, o‘quvchining yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatini hisobga olib, ularni o‘ylashga, izlanishga undashi, ijodkorlik, uslubiy mahorat, ilg‘or pedagogik va novatorlik tajribalaridan foydalanish;

Dars kuzatish va tahlil qilish ketma-ketligi

1) Dars kuzatuvchining maqsadi;

2) Dars jarayonini kuzatish va tahlil qilish;

3) Dars jarayonida o‘qituvchining dars o‘tish bosqichlariga amal qilish;

4) Dars samaradorligi va o‘qituvchining ish faoliyatini yanada yaxshilashga oid dars kuzatuvchining tahlillari hamda taklif va mulohazalari.

Dars tahlili turlari

1.Didaktik (Yoki ta’limiy) tahlil.

Tahlilning bu turida mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomon yo‘nalishi, ko‘rgazmaliligi va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligi, ularning jonli va ravon tilda ochib berilishi nazarda tutiladi

2.Uslubiy tahlil.

Bunda o‘qituvchi faoliyatining ikki tomoni: birinchidan, o‘rganilayotgan mavzuga dasturda m o‘ljallangan soatda, uni qanday usullar yordamida, talabalarning yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazib bera olishi, talabalarni o‘ylashga, izlanishga majbur etishi va unga sharoit yaratishi;

• ikkinchidan, o‘qituvchi sifatidagi tajribalari qaysi darajada ekanligini namoyish eta olishi nazarda tutiladi. O‘qituvchining ikkinchi tomoni tahlil etilayotganda, uning ijodkorligi, uslubiy mahorati ko‘zga tashlanishi lozim. O‘qituvchining ilg‘or pedagogik va novatorlik tajribalari mana shu yerdan boshlanadi

3. Metodologik tahlil

Ushbu tahlil mobaynida ta’lim yo‘nalishidagi hukumat qarorlari, talablar, davlat tili, milliy ruh, madaniyatning go‘zal durdonalari, shu soha bo‘yicha buyuk alloma va olimlarning qilgan ishlari, fikrlari, respublikadagi oxirgi o‘zgarishlarning mashg‘ulot davomida foydalanilishi asos qilib olinishi mumkin

4. Psixologik tahlil

Bu tahlilda, avvalo, o‘quvchilarning kayfiyati, ularning sog’ligi, jamoadagi sog’lom muhit, xushyorligi fanga bo‘lgan qiziqishlari, dars berayotgan o‘qituvchisiga munosabati, hozirjavobligi, sezgir va topqirligi, idroki, yangi va avvalgi materiallarni esda saqlashlari, obrazli va mantiqiy tafakkuri, fantaziyasi, oldida turgan mas’uliyatlariga irodali yoki irodasizligi, ulardagi bilim, ko’nikma va malakalar ko‘lami kabi tomonlar kiradi. O‘qituvchining favqulodda vujudga kelgan vaziyatdan o‘z obro‘sini saqlagan holda chiqa olishi, o‘zini boshqara olishi ham inobatga olinadi

5. Pedagogik tahlil

Tahlilning bu turi ancha murakkab va mas’uliyatli bo‘lib,

o‘qituvchining tashqi qiyofasi, talabalar bilan til topa olish mahorati, madaniyati, odobi bilan birgalikda dars jarayonida umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini talabalarga bera olishi va uning nutq madaniyati ham nazarda tutiladi

Dars kuzatishdan chiqarilgan yakuniy xulosalar, taklif va tavsiyalar

Pedagogik odob, o‘zaro hurmat va bir-birini tushungan holda dars kuzatuvida ishtirok etganlar yuqorida tavsiya etilgan texnologik yondashuv asosida o‘z fikrlarini oshkora bildirganlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Har qanday tajribali, bilimdon, uzoq yillik pedagogik faoliyatda samarali ishlab kelayotgan mutaxassisda ham ayrim kamchiliklar ko‘zga tashlanib qoladi. O‘qituvchining yoshi, tajribasini hurmat qilib, uni aytib o‘tmaslik, o‘qituvchining keyingi o‘tadigan darslarini samarali bo‘lishiga qisman bo‘lsada, to‘sqinlik qilishi mumkin. Chiqarilgan yakuniy xulosalar, taklif va tavsiyalarga muvofiq o‘qituvchining ish tajribasini umumashtirish va ommalashtirish yetuk hamda raqobatbardosh o‘qituvchi kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin tutadi Xulosa. Dars tahlili o‘qituvchining ish faoliyatini o‘rganish, fan asoslarini o‘quvchilar qanday darajada o‘zlashtirayotganligini aniqlash va davlat o‘quv dasturi materiallarining reja asosida bajarilishini nazorat etishning asosiy omili hisoblanadi. Darslarni ilmiy, metodik, didaktik va umumiy pedagogik, psixologik jihatlarga bo‘lib tahlil etish dars tahliliga aniqlik kiritadi, uni mukammallashtiradi hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga mukammal baho berish imkonini kengaytiradi.

Fidbek nima?

Fidbek – inglizcha “feedback” so’zidan olingan bo’lib, “qayta bog’lanish” degan ma’noni bildiradi.

Fidbek quyidagi maqsadlarda qo’llanadi:

1) boshqa kishiga o’zim haqimda nima o’ylashim va his qilishimni bildirish;
2) boshqa kishiga u haqida nima o’ylashim va his qilishimni bildirish;

Fidbek - ikki kishi orasidagi xulq va munosabatni tartibga solish instrumentidir.

Fidbek berish va olish qiyinchiliklari:

- milliy urf-odatlar;
- munosabat buzilishidan qo’rqish;
- noto’g’ri tushunishlaridan qo’rqish;
- harakat qilishdagi ishonchsizlik.

Fidbek dars tahlili, biror holatga munosabat bildirishda qo’llaniladi. Fidbek berish va Fidbek olish qoidalari mavjud.

Fidbek berishda:

- Baholamang, balki izohlang (ijobiydan boshlang)
- Umumiy gaplardan qoching, aniq narsaga Fidbek bering
- Biror o’zgartirish kiritish taklifingiz bo’lsagina fikr bildiring
- Fidbek berishdan oldin rozilik oling
- Fidbek bilan voqea o’rtasidagi vaqt oz bo’lishi kerak

- Hayajon yo’qligiga ishonch hosil qiling
- “Menimcha”, “Ehtimol”, “Mening nazarimda”, “Iloji bo’lsa” kabi iboralardan foydalaning
- Fidbek berilayotgan kishiga shaxsan murojaat qiling: “Sizning ... menga yoqdi”, “Sizning o’rningizda men bo’lganimda, ...” kabi.

Fidbek olishda:

- O’zingizni oqlamang
- Fidbek olishga tayyor bo’lmasangiz, uni rad qiling
- Fidbek yakunida minnatdorchilik bildiring

Fidbekni muntazam qo’llash munosabatlarni yaxshilash, hamkorlik va hamjihatlik muhitini yaratish, shu orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умаров А. С., Рахимов А. К., Мирзаева Н. А. ДАРС СИФАТИНИНГ ТАҲЛИЛИ–ТАЪЛИМ ТАРАҚҚИЁТИ МЕЗОНИ //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 80-88.
2. G‘aybullaeva M. DARS TAHLILI PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHNING VOSITASI SIFATIDA //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 836-840.
3. Мирзаев И. Дарс таҳлили. / Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи», 1985.
4. Олимов Ш.Ш. Некоторые вопросы организации урока на основании педагогических технологий //Молодой ученый. – 2013. – №. 5. – С. 752- 754.